



YOSHLAR IJTIMOIYLASHUVIDA MILLIY QADRIYATLARNING AKSIOLOGIK AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21861280>

Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tarix fakulteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Sobirjonova Omina

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar ijtimoiylashuvi jarayonida milliy qadriyatlarning aksiologik ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yoshlar dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy kamoloti, fuqarolik mas’uliyati hamda milliy o‘zlikni anglashni shakllantirishdagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Globallashuv sharoitida yoshlarning qadriyatlar tizimini rivojlantirishda oila, ta’lim muassasalari va jamiyatning o‘zaro hamkorligi muhim omil sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, ijtimoiylashuv, milliy qadriyatlar, aksiologiya, ma’naviy tarbiya, milliy o‘zlik, fuqarolik mas’uliyati, qadriyatlar tizimi.

Аннотация: В данной статье анализируется аксиологическое значение национальных ценностей в процессе социализации молодежи. Особое внимание уделяется роли национальных и общечеловеческих ценностей в формировании мировоззрения молодежи, духовно-нравственного развития, гражданской ответственности и национального самосознания. В условиях глобализации взаимодействие семьи, образовательных учреждений и общества рассматривается как важнейший фактор формирования системы ценностей молодого поколения.

Ключевые слова: молодежь, социализация, национальные ценности, аксиология, духовное воспитание, национальное самосознание, гражданская ответственность, система ценностей.

Abstract: This article examines the axiological significance of national values in the process of youth socialization. It analyzes the role of national and universal values in shaping young people's worldview, spiritual and moral development, civic responsibility, and national identity. In the context of globalization, the cooperation of the family, educational institutions, and society is considered a key factor in developing the value system of the younger generation.

Keywords: youth, socialization, national values, axiology, spiritual education, national identity, civic responsibility, value system.



Jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri yosh avlodning qanday dunyoqarash va qadriyatlar asosida shakllanishi bilan belgilanadi, yoshlar har qanday davlatning kelajagini belgilovchi strategik kuch hisoblanadi va ularning bilimli, ma'naviy yetuk, axloqan barkamol va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishida milliy qadriyatlarning o'rni beqiyosdir. Bugungi globallashuv jarayonlari insoniyat hayotining barcha sohalariga, xususan, yoshlarning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi, turli madaniy ta'sirlarning kuchayishi natijasida yoshlarning milliy o'zligini anglash, ma'naviy immunitetini shakllantirish va qadriyatlar tizimini mustahkamlash masalalari dolzarb ilmiy muammolardan biriga aylandi. O'zbekiston sharoitida yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda, milliy qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy tajribasi va ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan axloqiy me'yorlarini o'zida mujassam etadi. Milliy qadriyatlar yoshlarning nafaqat ma'naviy dunyosini boyitadi, balki ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehnatsevarlik, halollik va mas'uliyat kabi fazilatlarni shakllantiradi. Ijtimoiylashuv tushunchasi shaxsning jamiyat tajribasini o'zlashtirishi, ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor namunalarini

egallashi jarayonini anglatadi. Psixologik va pedagogik tadqiqotlarda ijtimoiylashuv insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy shaxsga aylanish jarayoni sifatida izohlanadi. L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, insonning psixik va ijtimoiy rivojlanishi avvalo ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda shakllanadi. Shaxs o'zining dunyoqarashi, e'tiqodi va qadriyatlarini jamiyat bilan munosabat jarayonida egallaydi va shu jihatdan ham milliy qadriyatlar yoshlarning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishida muhim vosita hisoblanadi. A.N. Leontevning faoliyat nazariyasida esa shaxsning shakllanishi uning faoliyati va ijtimoiy munosabatlari orqali amalga oshishi ta'kidlanadi, yoshlar milliy qadriyatlarni faqat nazariy bilim sifatida emas, balki oiladagi munosabatlar, mahalla muhiti, ta'lim jarayoni va ijtimoiy faoliyat orqali amaliy ravishda o'zlashtiradilar. Aksiologiya esa falsafaning qadriyatlar haqidagi ta'limoti bo'lib, unda inson hayotining ma'nosi, axloqiy mezonlari va jamiyat uchun muhim bo'lgan ideallar o'rganiladi. Aksiologik yondashuv yoshlar tarbiyasida qanday qadriyatlarni shakllantirish kerakligi va ularning shaxs rivojidagi ahamiyatini tushunishga imkon beradi. Milliy qadriyatlar aksiologik nuqtai nazardan xalqning tarixiy tajribasi, ma'naviy merosi va hayotiy qarashlarini ifodalovchi ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Ular avloddan avlodga o'tib, jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlaydi. Milliy qadriyatlar jamiyatning tarixiy



taraqqiyoti davomida shakllangan, avloddan avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy mezonlar majmuasidir, ular xalqning o'zligini namoyon etuvchi asosiy omillardan biri bo'lib, yosh avlodning dunyoqarashi, xulq-atvori va hayotiy pozitsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi va yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida milliy qadriyatlar shaxsning jamiyatdagi o'rini anglashiga, o'z xalqining tarixi, madaniyati va an'alariga hurmat bilan munosabatda bo'lishiga yordam beradi. Ayniqsa, oila, mahalla va ta'lim muassasalari milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdiruvchi asosiy ijtimoiy institutlar hisoblanadi. O'zbek xalqining ko'p asrlik ma'naviy merosi yoshlar tarbiyasi uchun katta ahamiyatga ega. Jumladan, ota-onaga hurmat, kattalarni e'zozlash, kichiklarga g'amxo'rlik qilish, mehmondo'stlik, mehr-oqibat, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar xalqimizning asosiy axloqiy qadriyatlari sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu qadriyatlar yoshlarning nafaqat shaxsiy kamolotiga, balki jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatli inson sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Buyuk ajdodlarimizning ilmiy va ma'naviy merosi ham yoshlar tarbiyasida muhim manba hisoblanadi. Masalan, Abu Ali ibn Sinoning ilmga intilish, inson salomatligi va kamoloti haqidagi qarashlari, Abu Nasr Forobiyning fozil jamiyat va komil inson haqidagi g'oyalari, Alisher Navoiyning insonparvarlik, adolat va ma'rifatga asoslangan ta'limotlari bugungi yoshlar

uchun ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Alisher Navoiy asarlarida ilgari surilgan komil inson g'oyasi yoshlarni axloqiy poklik, ilm-ma'rifat va ezgulikka intilish ruhida tarbiyalaydi. Uning: "Odamiy ersang, demagil odami, Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami" degan hikmatli fikri insonning jamiyat oldidagi mas'uliyati va boshqalarga mehribon bo'lishi zarurligini ifodalaydi. Bugungi globallashuv jarayonlari yoshlar dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda va bir tomondan, globallashuv ilm-fan, texnologiya va madaniyatlararo muloqot imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ayrim salbiy g'oyalar va begona madaniy ta'sirlarning tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli zamonaviy yoshlarni faqat milliy qadriyatlarga asoslangan holda emas, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi asosida tarbiyalash zarur, bugungi yosh xalqaro maydonda faoliyat yuritishi, zamonaviy bilimlarni egallashi va turli madaniyatlar bilan muloqot qila olishi kerak. Bunda asosiy vazifa yoshlarni tashqi ta'sirlardan himoya qilish emas, balki ularda mustahkam ma'naviy mezon va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishdan iborat. O'z milliy qadriyatlarini yaxshi anglagan yosh boshqa madaniyatlarni ham hurmat qiladi, lekin o'zligini yo'qotmaydi. Masalan, xorijiy tillarni o'rganayotgan, zamonaviy texnologiyalarni egallayotgan yosh bir vaqtning o'zida o'z xalqining tarixi, adabiyoti va madaniyatini ham bilishi



zarur hisoblanib, uyg'unlik barkamol va raqobatbardosh shaxs shakllanishining muhim shartidir. Yoshlarning qadriyatlar tizimini shakllantirishda ta'lim tizimining o'rni alohida ahamiyatga ega. Chunki maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan jarayonda shaxsning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy pozitsiyasi shakllanadi. Ta'lim jarayonida tarix, adabiyot, ma'naviyat asoslari, falsafa kabi fanlar orqali yoshlar milliy merosimiz bilan tanishtiriladi. Shu bilan birga, darsdan tashqari tadbirlar, ilmiy konferensiyalar, kitobxonlik loyihalari, madaniy-ma'rifiy uchrashuvlar ham yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "Besh muhim tashabbus" doirasidagi loyihalar ham yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Xususan, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, san'at va sportga jalb qilish orqali yoshlarning ma'naviy dunyosi boyitilmoqda. Bundan tashqari, mahalla institutining imkoniyatlaridan samarali foydalanish ham muhimdir. Mahalla yoshlarning ijtimoiylashuvi, milliy an'analar va urf-

odatlarini o'zlashtirishida tarixan muhim tarbiyaviy maktab bo'lib kelgan. Hashar, mahalla tadbirlari, keksalar bilan muloqot kabi jarayonlar yoshlarning jamoaviylik, hamjihatlik va hurmat tuyg'ularini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar yoshlar ijtimoiylashuvining muhim aksiologik asoslaridan biridir. Ular yosh avlodning ma'naviy dunyosini shakllantiradi, milliy o'zligini anglashiga yordam beradi va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini egallashiga zamin yaratadi. Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash va ularni zamonaviy taraqqiyot talablari bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki o'z tarixini, madaniyatini va qadriyatlarini bilgan yoshgina zamonaviy dunyoda mustahkam pozitsiyaga ega bo'la oladi. Shu bois yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlardan samarali foydalanish davlat, oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning barcha institutlari hamkorligini talab etadi, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega yoshlar Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy bunyodkor kuchi bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF–60-son Farmon. – Toshkent, 2022.
3. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi.



4. Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.

5. Rustamov Sh.Sh. Psixologik ta’limotlar tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati,